



CATEGORIES (RANKS) OF JURISTS WHO WORKED WITHIN THE HANAFI SCHOOL OF LAW

Ahror Abdushukurov

PhD Student, International Islamic Academy of Uzbekistan

Lecturer, Khoja Bukhariy Secondary Specialized Islamic Educational Institution

E-mail: ahroribnmahmud9007@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hanafi school, juristic ranks, ijtiḥad, takhrij, tarjih, fiqh, mujtahid, muqallid.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: This article analyzes the scholarly ranks of jurists (fuqaha) within the Hanafi school of Islamic law and their role in the development of Islamic jurisprudence. The study examines the classifications of Hanafi scholars, particularly the system of juristic ranks proposed by Ibn Kamal Pasha. In addition, the classifications suggested by Shah Waliullah Dehlawi and Muhammad Abu Zahra are comparatively analyzed. The research concludes that the classification of jurists should be based on their level of ijtiḥad, their ability to derive legal rulings, and their competence in evaluating different legal narrations. This study is significant for understanding the intellectual development of the Hanafi school of law.

HANAFIY MAZHABIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN FAQIHLARNING TABAQALARI

Ahror Abdushukurov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

e-mail.: ahroribnmahmud9007@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: hanafiy mazhabi, faqihlar tabaqasi, ijtiḥod, taxrij, tarjih, fiqh, mujtahid, muqallid.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hanafiy mazhabida faoliyat olib borgan faqihlarning tabaqalari, ularning ilmiy darajalari hamda

fiqh ilmi rivojidadagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hanafiy mazhabi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan faqihlar tasnifi, xususan Ibn Kamol Poshsho tomonidan keltirilgan tabaqot tizimi ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, Valiyyulloh Dehlaviy va Muhammad Abu Zahra tomonidan ilgari surilgan tasniflar ham qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida faqihlarni tabaqalarga ajratish ularning ijthod darajasi, fihiy masalalarni hal qilish salohiyati hamda rivoyatlar o'rtasini ajrata olish qobiliyatiga asoslanishi lozimligi aniqlandi. Mazkur tadqiqot hanafiy fiqh maktabining ilmiy rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

КАТЕГОРИИ ФАКИХОВ, ОСУЩЕСТВЛЯВШИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ХАНАФИТСКОМ МАЗХАБЕ

Ахрор Абдушукуров

Докторант (PhD) Международной исламской академии Узбекистана

Преподаватель среднего специального исламского образовательного учреждения «Ходжа Бухорий»

E-mail: ahroribnmahmud9007@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ханафитский мазхаб, категории факихов, иджитihad, тахридж, тарджих, фикх, муджтахид, мукаллид.

Аннотация: В данной статье анализируются категории ханафитских факихов, их научный уровень и роль в развитии исламского права. В ходе исследования были изучены классификации ученых ханафитского мазхаба, в частности система табакат, предложенная Ибн Камал Пашой. Также проведен сравнительный анализ классификаций, предложенных Валиуллахом Дехлеви и Мухаммадом Абу Захрой. В результате исследования установлено, что классификация факихов должна основываться на уровне их иджитhада, способности решать правовые вопросы и умении различать правовые мнения. Данное исследование имеет важное значение для изучения этапов развития ханафитской правовой школы.

Kirish. Darhaqiqat, hanafiy mazhabi faqihlari ham ummatning boshqa olimlari singari bir xil martabada faoliyat olib borishmagan. Ular orasida “mutloq mujtahid”, “muqallid mujtahid” va shu kabi martabalarga erishgan olimlar mavjud. Hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqa va darajalari haqida tadqiqot qiluvchi kishi bu borada olimlar ochiq-oydin keltirgan yoki kitoblarida ishora qilib o'tgan bir nechta taqsimotlarga duch kelishi mumkin. Ushbu taqsimotlarning ba'zida faqihlardagi zamoniy tartib ya'ni, ularning faoliyat olib borgan va vafot etgan sanalari yondoshilgan. Har bir tabaqaga tegishli olimlarning faoliyatini ilmiy, daqiq va asosli tarzda bayon qilinmagan asarlar ham shular jumlasidandir. Bunga misol tariqasida Ali ibn Amrulloh ibn Abdulqodir Hannoliyni [1] keltirish mumkin. Chunki u o'zining “at-Tabaqot al-hanafiyya” asarida hanafiy mazhabiga mansub olimlarini yigirma bitta tabaqa bilan keltirgan [2]. Biroq bu tabaqa vakillarini bir-biridan ajraib turuvchi jihatlarini bayon qilmagan. Shuningdek Mahmud ibn Sulaymon Kafaviy [3] ham asarida hanafiy faqihlarining tarjimai holini keltirib, ularni yigirma ikki tabaqaga ajratgan va har bir tabaqani “katiba” deb nomlagan. Bu kabi taqsimotlar olimlar nazdida mo'tabar hisoblanmaydi. Chunki bu taqsimotlar yuqorida bayon qilingani kabi daqiq ilmiy meyorlar va tartiblar asosida bayon qilinmagan. Bu taqsimotlarda faqat zamoniy tartibning o'zigagina rioya qilingan. Ulardan ko'zlangan maqsad tarjimai holi keltirilgan taniqli olimlarni tartiblashdir. Bu xuddi kitobning mundarijalari bob va fasllarga taqsimlanishi hamda tabaqa va tarjimai hollar haqida yozilgan asar egalarining ba'zilar olimlarni lug'at harflari asosida keltirishlariga o'xshaydi.

Ba'zi taqsimotlar ilmiy darajalar va faqihlar nazdida ijthod va taxrij imkoniyatlariga ega ekanligi asosida yozilgan. Mana shu olimlarni tartiblash borasidagi mo'tabar va tadqiqot mavzusiga mos yo'nalishdir. Chunki faqihlarni taqsimlash va ularni tabaqalar asosida tartiblashdan ko'zlangan maqsad qozilar, muftiylar, islom fiqhi borasida tadqiqot olib boruvchilar hamda bu ishga ahamiyat qaratuvchilar faqihlarning turli rivoyatlar o'rtasini ajratish va hanafiy mazhabi faqihlarining turli qavllari o'rtasini tarjih qilish borasida qanday martabada ekanligini bilishi lozimdir.

Adabiyotlar tahlili. Hanafiy mazhabi faqihlari tabaqalarining taqsimotlarining mashhuri Ibn Kamol Poshsho (vaf.940/1533) tomonidan amalga oshirilgan. Chunki muallif faqihlarni yettita tabaqaga ajratgan va bu borada kichik bir risola yozgan. Ibn Kamol Poshsho faqihlarni quyidagicha tartibda keltirib o'tgan:

Birinchi tabaqa – shariatda mujahid bo'lganlar tabaqasi. To'rt mazhab imomlari Abu Hanifa No'mon ibn Sobit (vaf.150/767), Muhammad ibn Idris Shofeiy (vaf.204/820), Molik ibn Anas (vaf.179/795) va Ahmad ibn Hanbal (vaf.241/855) hamda ular kabi yo'l tutgan, usul qoidalariga asos solish far'iy masalalarda ham, asllarda ham boshqaga taqlid qilmasdan o'zlari

asos solgan qoidalar asosida to'rt dalildan (ya'ni, Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosdan) far'iy hukmlarni istinbot qilishda ularning yo'lidan yurgan har bir faqih ushbu tabaqaga mansubdir.

Ikkinchi tabaqa – mazhab ichida mujtahid bo'lganlar tabaqasi. Abu Hanifaning shogirdlari ichida Abu Yusuf (vaf.182/798), Muhammad (vaf.189/804) va shular kabi ustozlari asos solgan qoidalar taqozosiga ko'ra mazkur dalillardan hukmlarni istinbot qilishga iqtidori bo'lgan boshqa faqihlar ushbu tabaqaga mansubdir.

Bu tabaqaga mansub faqihlar garchi ba'zi far'iy hukmlarda imom Abu Hanifaga xilof qilsalarda asliy qoidalarda unga taqlid qilishadi. Shu bilan ular mazhab egalari bo'lgan imomlarning qolganlaridan ajralib turadilar va imom Shofei'iy kabi mazhabda imom Abu Hanifaga xilof qiluvchi faqihlardan ajralib turadilar.

Uchinchi tabaqa – mazhab sohibidan u borada rivoyat kelmagan masalalar borasida ijti'od qila oluvchilar tabaqasi. Bu tabaqaga Xassof (vaf.261/875), Abu Ja'far Tahoviy (vaf.321/933), Abulhasan Karxiy (vaf.340/951), Shamsul aimma Halvoniy (vaf.449/1057), Shamsul aimma Saraxsiy (vaf.483/1090), Faxrul islom Pazdaviy (vaf.482/1087), Faxriddin Qozixon (vaf.592/1195) va shu kabi faqihlarni kiritish mumkin.

Ushbu tabaqa vakillari na asllarda va na far'iy masalalarda mazhab imomiga xilof qilishga qodir emas. Ular faqatgina u borada mazhab imomidan qavl kelmagan masalalarda mazhab imoni asos solgan qoidalarga binoan hukmlarni istinbot qila oladilar.

To'rtinchi tabaqa – muqallidlar ichida taxrij (hukmni chiqara olish) egalari bo'lgan faqihlar tabaqasi. Bu tabaqaga Abu Bakr Jassos (vaf.370/980) va shu kabi umuman ijti'od qilish salohiyatiga ega bo'lmagan faqihlar tabaqasidir. Biroq bu tabaqa vakillari mazhabi imom asos solgan qoidalarni puxta o'zlashtirganliklari va manbalardan to'la xabardor ekanliklari sababli ikki jihatni ehtimol qilib turuvchi mujmal (noaniq) qavl va mazhab imomidan yoki uning shogirdlari ichida mujtahidlik maqomida bo'lganlarning biridan naql qilingan mu'ham hukmni ajrata olish qobiliyatiga egadirlar. Ba'zi manbalarda "الكرخي تخريج في كذا", "الرازي تخريج في كذا" va shu kabi iboralar shu qabildandir.

Beshinchi tabaqa – muqallidlar ichida tarjih (ustun qo'ya olish) egalari bo'lgan faqihlar. Bu tabaqaga Abulhusayn Quduriy (vaf.468/1036), "al-Hidoya" asarining muallifi Burhoniddin Marg'inoniy (vaf.593/1196) va shu kabi olimlar mansubdir.

Ushbu tabaqa vakillarining vazifasi o'zlarining "أولى هذا" (bu avlodir), "رواية أصح هذا" (bu rivoyat jihatidan sahihroqdir), "أوضح هذا" (bu ravshanroqdir), "اللقياس أوفق هذا" (bu qiyosga muvofiqroqdir), "للناس أرفق هذا" (bu insonlarga manfaatliroqdir) va shu kabi iboralari bilan rivoyatlarning ba'zilarini ba'zilaridan afzal qo'ya olish mahoratiga ega ekanligidir.

Oltinchi tabaqa – aqvo كُفْلِي (kuchliroq), qaviy (kuchli) va zaif, zohirur rivoya (u borada mazhab imomidan rivoyat bo'lgan), mazhabda zohir bo'lgan hukm va nodir rivoyat o'rtasini ajrata olish salohiyatiga ega bo'lgan muqallidlar tabaqasi. Bu tabaqaga to'rtta mo'tabar matnlarning mualliflari Hofiziddin Abulbarakot Nasafiy (vaf.710/1310), Abulfazl Mavsiliy (vaf.683/1274), Mahbubiy va Ibn Soatiy (vaf.694/1294) kabi olimlar mansubdir.

Ularning vazifasi mardud (rad etilgan) qavllar va zaif rivoyatlarni o'z asarlarida naql qilib keltirmasliklaridir.

Yettinchi tabaqa – yuqorida zikr qilingan ishlarga qodir bo'lmagan va rivoyatlar o'rtasini ajrata olmaydigan, balki xuddi tunda o'tin yig'uvchi kabi topgan narsalarini jamlayveradigan faqihlar tabaqasidir[4].

Ibn Kamol Poshsho tomonidan boshlangan ushbu taqsimot ko'plab olimlar tomonidan ma'qullangan. Xususan, Toshkubriyzoda (vaf.968/1560) "Tabaqotul fuqaho", Kafaviy (vaf.990/1582) "Kataibi a'lamil axyar", Tamimiy (vaf.1010/1601) "at-Tabaqotus saniyya", Zuhriy (vaf.1079/1668) "al-Javahirun nafiyya", Ibn Obidin (vaf.1252/1836) "Raddul muhtor" va "Sharhi uqudi rasmi muftiy" asarlarida Ibn Kamol Poshshoning taqsimotiga tayangan.

Shayx Valiyyulloh Dehlaviy (vaf.1176/1762) faqihlarni uch tabaqaga bo'lgan va unga bu borada ko'plab hanafiy olimlari ergashgan. Uning taqsimotiga ko'ra birinchi tabaqa mutloq mujtahidlik maqomida bo'lgan faqihlar, ikkinchi tabaqa mazhab ichida mujtahid bo'lgan faqihlar, uchinchi tabaqa esa fatvoda mujtahid bo'lgan faqihlar tabaqasidir. Dehlaviy asarida har bir tabaqa vakillarining burch va vazifalari haqida to'xtalib o'tgan[5].

Muhammad Abu Zahro (vaf.1394/1974) esa aslida yuqoridagi ikki taqsimotdan boshqa yangi bir taqsimotdan foydalanmagan. Balki Ibn Kamol Poshshoning taqsimotidan kelib chiqib xulosa qilgan. Chunki u Abu Hanifa haqida yozgan asarida Ibn Kamol Poshshoning taqsimotini Ibn Obidin zikr qilganlariga tayangan holda keltirib, xuddi boshqalar kabi bunga tanqidiy fikrlar bildirgan va o'zining tanqidiy fikrlarini quyidagicha izohlagan:

1. Taqsimotdan ikkinchi va yettinchi tabaqalarni olib tashlash.

2. Ushbu taqsimot ichida uchinchi (mazhab egasidan rivoyat kelmagan masalalar borasida mujtahid bo'lganlar tabaqasi), to'rtinchi (taxrij egalari tabaqasi) va beshinchi (tarjih egalari tabaqasi) tabaqani alohida keltirmasdan bir-biriga kirgizishdir. Bu uchta tabaqa o'rtasini ajratishda foyda yo'q. Chunki taxrij bu mazhab imomidan rivoyat kelmagan masalalar borasida ijthod qilishdir. Taxrij egalarining vazifalari borasida keltirilgan narsalar tarjih egalarining ishiga mos keladi. Ish shunday bo'lgach ushbu uch tabaqadan ikki tabaqa ya'ni, taxrij egalari tabaqasi va tarjih egalari tabaqasini qoldirib, bittasini olib tashlash maqsadga muvofiqdir[6].

Demak Abu Zahroning fikriga muvofiq hanafiy mazhabiga mansub faqihlar tabaqalari to'rtta bo'ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari masalasini o'rganishda bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tarixiy-tahliliy metod orqali hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari shakllanishi va rivojlanish bosqichlari klassik manbalar asosida o'rganildi. Ushbu metod yordamida faqihlarning ilmiy faoliyati hamda ularning fiqh ilmi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilindi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali turli olimlar tomonidan keltirilgan tabaqot tasniflari o'zaro solishtirildi. Xususan, Ibn Kamol Poshsho, Toshkubriyzoda, Kafaviy, Valiyyulloh Dehlaviy hamda Muhammad Abu Zahra tomonidan keltirilgan tasniflar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida manbashunoslik metodidan ham keng foydalanildi. Bu orqali hanafiy mazhabiga oid tabaqot va fiqhiy adabiyotlar o'rganilib, ulardagi faqihlar tabaqalari haqidagi ma'lumotlar tizimlashtirildi. Ayniqsa, faqihlarning ilmiy darajasini aniqlashda ularning ijti-hod qilish qobiliyati, fiqhiy masalalarda mustaqil hukm chiqara olish salohiyati hamda rivoyatlar o'rtasini ajrata olish mahorati asosiy mezon sifatida olindi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodi orqali faqihlarning tabaqalari yagona ilmiy tizim sifatida o'rganildi. Bu esa hanafiy fiqh maktabining ichki ilmiy ierarxiyasini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy mezonlarga alohida e'tibor qaratildi:

- faqihlarning ijti-hod darajasi;
- fiqh usulini bilish darajasi;
- taxrij va tarjih qilish salohiyati;
- fiqhiy rivoyatlarni tahlil qilish qobiliyati;
- fatvo berish vakolati.

Mazkur metodlar asosida olib borilgan tadqiqot hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari masalasini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqot davomida hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari haqidagi tasniflar o'rganilib, ularning ilmiy asoslari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, faqihlarni tabaqalarga ajratish faqat tarixiy davr yoki tarjimai hol asosida emas, balki ularning fiqhiy salohiyati, ijti-hod darajasi hamda fiqhiy masalalarni hal qilishdagi salohiyatlariga qarab amalga oshirilganda ilmiy jihatdan ahamiyatli bo'ladi.

Ibn Kamol Poshsho tomonidan ishlab chiqilgan taqsimot hanafiy mazhabidagi faqihlarning ilmiy darajalarini aniqlashda eng mukammal taqsimotlardan biri ekanligi aniqlandi. Chunki ushbu

taqsimot faqihlarning ijthod qilish darajasi, taxrij va tarjih qobiliyati hamda rivoyatlar o'rtasini ajrata olish salohiyatiga qarab tizimli ravishda ishlab chiqilgan.

Mazkur tasnifning yana bir muhim jihati shundaki, u fiqh ilmi bilan shug'ullanuvchi muftiy, qozi va ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki faqihlarning qaysi tabaqaga mansubligini bilish ularning fiqhiy qarashlariga qanday darajada tayanish mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Valiyyulloh Dehlaviy va Muhammad Abu Zahra tomonidan keltirilgan taqsimotlar ham o'rganildi. Dehlaviy taqsimoti soddaligi bilan ajralib tursa, Abu Zahra taqsimoti tanqidiy yondashuvi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Abu Zahra tomonidan ayrim tabaqalarni birlashtirish haqidagi fikrlar ushbu masalaga yangicha ilmiy yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalanishi fiqh ilmining rivojlanish bosqichlarini ham aks ettiradi. Dastlab mutlaq mujtahidlar davri bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mazhab ichida ijthod qilish, undan so'ng esa tarjih va taxrij bosqichlari shakllangan.

Bu esa hanafiy fiqh maktabining uzluksiz ilmiy rivojlanish jarayoniga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari fiqh ilmi tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu taqsimotlar orqali faqihlarning ilmiy darajasi, ijthod qilish salohiyati hamda fiqhiy merosdagi o'rni aniqlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Ibn Kamol Poshsho tomonidan ishlab chiqilgan taqsimot hanafiy mazhabidagi faqihlar tabaqalarini o'rganishda eng mukammal va tizimli tasniflardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu tasnif faqihlarning ilmiy vakolatlari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalari masalasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida yanada chuqurroq tadqiq etish;
- hanafiy fiqhiga oid tabaqot asarlarini alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish;
- fiqh ta'limida faqihlar tabaqalari haqidagi bilimlarni metodologik asos sifatida o'qitish;
- hanafiy mazhabi olimlarining ilmiy merosini tizimli ravishda tadqiq qilish orqali zamonaviy fiqhiy masalalarga yechimlar ishlab chiqish.

Umuman olganda, hanafiy mazhabi faqihlarining tabaqalarini o'rganish nafaqat fiqh tarixini anglash, balki zamonaviy fiqh tadqiqotlari uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xayriddin Zirikliy. Al-A' lam. – Bayrut/Livan: Dar al-ilm lilmalayin, 2002. – J. I V. – B.264,265 va – J.V I I. – B.172.
2. Ahmad Muhammad Nasiriddin Naqib. Al-mazhab al-hanafiy. – Riyoz: Makatabatur rushd, 2001. – B.161.
3. Umar Rizo Kahola. Mo' jam al-musannifin. – Bayrut/Livan: Muassast ar-risala, 1993. – J. I I I. – B.809.
4. Ibn Kamol Poshsho. Tabaqot al-fuqaho. Dr. Saloh Muhammad Abulhoj tahqiqi. – Iordaniya: Markazi anvar al-ulama lid-dirosat, 2020. – B.54.
5. Shoh Valiyyulloh Dehlaviy. Aqd al-jiyd fiy ahkam al-ijtihad vat-taqlid. – Iordaniya: Maktabat al-ashrafiyya, (yili ko'rsatilmagan) – B.17.
6. Muhammad Abu Zahro. Abu Hanifa va hayatuhu va asruhu va arauhu va fiqhuhu. – Qohira/Misr: Dar al-fikr al-arabiy, (yili ko'rsatilmagan) – B.385,389.
7. <https://tarajm.com> sayti.